10-son(1195), 2023 yil 27-dekabr
EL SOG`LIGI - YURT BOYLIGI

SHIFOKOR SO`ZI

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI NASHRI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN



O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrli vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko‘pmillatli butun xalqimizni 8 dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, shu kunga qadar erishgan barcha yutuq va marralarimiz, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlarimizning mustahkam poydevori hisoblanadi. Asosiy Qonunimizning jonajon O‘zbekistonimiz taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini yuksak qadrlaymiz.

Albatta, bu yilgi bayram ijtimoiy-siyosiy hayotimizda, mamlakatimiz rivojida alohida ma’no-mazmunga ega. Bu, avvalo, shu yil 30-aprelda milliy tariximizda birinchi marta umumxalq referendumi asosida Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilingani bilan bog‘liq, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Hech shubhasiz, tom ma’noda xalqchil qomus bo‘lgan Asosiy qonunimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarimiz ortga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning besh ustuni, ya’ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi.

Biz o‘z oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadlarga yetishda Asosiy qonunimizda muhrlangan barcha qoida va tamoyillarni amalga oshirmoqdamiz. Jamiyatimizda Konstitutsiya va qonun ustunligini ta’minlash, davlat organlari faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitga mos holda yo‘lga qo‘yishning ahamiyatini chuqur anglagan holda, bu borada tizimli ishlarni boshladik. Xususan, Asosiy qonunimizdan kelib chiqib, amaldagi qonunlarimizni yangi konstitutsiyaviy normalar bilan uyg‘unlashtirish yuzasidan jadal ishlar olib borilmoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, qisqa muddatda 30 dan ziyod qonun va qonunosti hujjatlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilganini ta’kidlash lozim.

Konstitutsiya va qonun ustunligi tamoyili – bu barqaror taraqqiyotning asosiy mezoni. So‘nggi yillarda barcha islohotlarimizni ayni shu tamoyil asosida amalga oshirdik.

Yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi oxirgi 6 yilda 1,5 martadan ortiq, tadbirkorlar soni 2 barobar va sanoatdagi o‘sish 40 foizdan ziyod oshgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shuningdek, joriy yilda ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag‘lar 134 trillion so‘mni tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 5,6 barobar ko‘paydi.

Keng ko‘lamli va tizimli islohotlarimiz natijalari xalqaro maydonda ham keng e’tirof etilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Korrupsiyaga murosasiz munosabat bo‘yicha xalqaro indeksda 32 pog‘onaga, Matbuot erkinligi indeksida 28 pog‘onaga, Huquq ustuvorligi indeksida 13 pog‘onaga ko‘tarildi…

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Dunyoning turli mintaqalarida ziddiyat va qarama-qarshiliklar, qurolli to‘qnashuvlar tobora avj olib bormoqda. Oldimizda yangi-yangi muammolar paydo bo‘lmoqda. Hozirgi o‘ta murakkab va tahlikali vaziyatda barchamiz yanada birlashishimiz kerak. Tanlagan yo‘limizdan qat’iy olg‘a borishimiz zarurligini asrlar davomida ko‘plab og‘ir sinov va mashaqqatlardan munosib o‘tgan mard va donishmand xalqimiz albatta yaxshi tushunadi.

Aminmanki, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi biz uchun bu yo‘lda ulkan ishonch, kuch-g‘ayrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Biz Asosiy qonunimizga tayangan holda, mana shunday noyob Konstitutsiyamizning asosiy ijodkori bo‘lgan ko‘pmillatli, bag‘rikeng va olijanob xalqimiz bilan birga ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz!

Yangi O‘zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz!

Siz, aziz vatandoshlarimni Konstitutsiya kuni bilan yana bir bor chin dildan qutlab, hammangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman.

Barcha ezgu ishlarimizda Yaratganning o‘zi madadkor bo‘lsin!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo‘lsin!

Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SAMDTU TALABALARI DAVLAT STIPENDIYALARI SOHIBI BO‘LDILAR



O‘zi tahsil olayotgan oliy ta’lim muassasasida o‘z bilim va intiluvchanligi, iqtidor va salohiyati hamda a’lo baholari bilan talabalar orasida namuna bo‘la olgan talabalar nomdor davlat stipendiyalariga sazovor bo‘ldilar.

Xususan, Samarqand davlat tibbiyot universitetida tahsil olayotgan bir guruh talabalar ham O‘zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalari sohibiga aylandilar!









“BMT MODELI” MAVZUSIDA ANJUMAN TASHKIL ETILDI

Universitetda Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda “BMT modeli” mavzusida konferensiya bo‘lib o‘tdi.





Konferensiyada turli oliy o‘quv yurtlari talabalari ishtirok etdilar. Ishtirokchilar anjuman doirasida o‘z bilim va ko‘nikmalari, g‘oyalari hamda turli global muammolar yuzasidan fikr va mulohazalarini o‘rtoqlashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Shuningdek, talabalar o‘zaro muloqot qilgan holda dunyoqarashlarini kengaytirish hamda yangi do‘stlar orttirish imkoniyatiga ham ega bo‘ldilar. Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, BMT modeli anjumani ishtirokchilarga ular olgan sertifikatlari shaxsiy rezyumelarida qobiliyatlari (omma oldida nutq so‘zlash, faol bo‘lish, fikrini to‘g‘ri ifoda etish kabi qobiliyatlar) haqida ko‘proq ma’lumot beradi. Bundan tashqari, ushbu sertifikatlar amaliyot (Nyu-York, Vena, Jeneva, Nayrobi, Gaaga kabi shaharlarda chet elda BMT stajirovkalari), ish o‘rinlari va chet elda o‘qish dasturlari uchun ariza berish uchun ishlatiladi, ular ko‘pincha ko‘rib chiqish uchun rezyumeni talab qiladi.

Konferensiyada talabalar o‘zlarini qiziqtirgan bir qator savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

“MA’RIFAT MAYDONI” RESPUBLIKA TANLOVINING SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI BOSQICHI BO‘LIB O‘TDI



Samarqand davlat tibbiyot universitetida “Ma’rifat maydoni” tanlovning universitet bosqichi tashkil etildi. Bir necha yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan “Ma’rifat maydoni” respublika ko‘rik-tanlovi yoshlarning adabiyot, san’at hamda jadidchilik harakati namoyandalari hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishishlariga zamin yaratmoqda. Bu yili ham tanlov keng miqyosda tashkil etildi.

Tanlovda talabalar 3 ta shart: tanishtiruv, savol-javob va sahna ko‘rinishlari namoyishi bo‘yicha bellashdilar. Har bir jamoa o‘zbek adabiyoti nazariyasi, adiblar hayoti bo‘yicha o‘z bilim va ko‘nikmalarini namoyish etdi. Yakunda Tibbiy profilaktika jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti 1-o‘rin, 1-son Davolash ishi va Pediatriya ishi fakultetlari 2-o‘rinni qo‘lga kiritishdi. Tanlovda faol ishtiroki uchun Farmatsiya fakulteti sertifikat bilan taqdirlandi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGANLIGINING 31 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TADBIR BO‘LIB O‘TDI



7-dekabr kuni universitetda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligiga bag‘ishlab tadbir tashkil etildi.

Tadbirda SamDTU Stomatologiya fakulteti dekani A.Axmedov, Samarqand shahar prokuraturasi katta leytenanti O.K.Xamroyev, SamDTU rektori maslahatchisi A.E.Aripov, universitet profilaktika inspektori O.Eshmurotov, tyutor va talabalar ishtirok etdi.



Tadbirda so‘zga chiqqanlar yig‘ilganlarga O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati, asosiy prinsiplari davlat, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari, burchlari hamda jamiyat va shaxs masalalari haqida tushunchalar berib o‘tishdi. Shuningdek, talabalar tomonidan tayyorlangan chiqishlar namoyish etildi.



XORIJLIK MUTAXASSISLAR ISHTIROKIDA SEMINAR TASHKIL ETILDI

Joriy yilning 28-noyabr kuni Samarqand davlat tibbiyot Universitetida Janubiy Koreaning Cha Universiteti Bungdan tibbiyot markazi xodimlari ishtirokida talaba, klinik oprdinator va magistrlar uchun "O'tkir qorin kasalliklari: zamonaviy diagnostika va davolash usullari" mavzusidagi o'quv seminari tashkil etildi.

Seminarda Cha Universiteti Bungdan tibbiyot markazi bosh shifokori, professor Jong Vu Kim qorin bo'shlig'ida paydo bo'ladigan va zudlik bilan jarrohlik aralashuvini talab qiladigan o'tkir qorin kasalligining yuzaga kelish sabablari, uni tashxislash va davolash usullari haqida ma'lumotlar berib o'tdi.

Shuningdek, kasallikning asosiy alomatlari hisoblangan qorindagi kuchli og'riq, yurak urishi kuchayishi, qayd qilish va qon ketishi kabi holatlarda zudlik bilan ko'rsatiladigan tibbiy yordamlar hamda jarrohlik amaliyotlari haqida fikr yuritildi. Seminarda ishtirok etganlar yuzaga kelgan savollarga atroflicha javob olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.





STOMATOLOGIYA FAKULTETI TALABALARI UCHUN MASTER-KLASS

18-dekabr kuni universitetda Stomatologiya fakulteti talabalari uchun N.N.Burdenko nomidagi Voronej davlat tibbiyot universiteti professori Irina Aleksandrovna Belenova tomonidan master-klass tashkil etildi.

Tadbirda SamDTU Stomatologiya fakulteti dekani A.Axmedov, DKTF stomatologiya kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori, dotsent, N.Nazarova hamda talabalar ishtirok etishdi.

"Tish ildizining halokatli patologiyasi yoki bo'ylama frakturasi: kim aybdor? va nima qilish kerak?" mavzusida o'tkazilgan ma'ruzada talabalarga tish patologiyasi, uning belgilari va davolash usullari haqida chuqurroq ma'lumotlar berib o'tildi. Jumladan, kasallikning paydo bo'lish sababi, rivojlanish qonuniyati, kechishi va oqibatlari haqida taqdimot orqali ma'lumotlar berib o'tildi. Master-klass so'ngida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

AMITY UNIVERSITETI VAKILLARI BILAN OCHIQ MULOQOT O'TKAZILDI

27-noyabr kuni universitetda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Samarqand viloyati Kengashi hamkorligida Toshkent shahridagi Amity universiteti vakillari bilan uchrashuv tashkil etildi.

Amity universiteti Toshkent shahrining yashil hududida joylashgan bo'lib, tadqiqot, yaxlit rivojlanish, xalqaro korporativ tajriba va akademik mukammallikka asoslangan. Amity universitetida boshlang'ich, bakalavriat va magistratura bosqichlarda oliy ta'limning turli yo'nalishlarida, jumladan axborot texnologiyalari, menejment, iqtisodiyot va turizm bo'yicha kasbga yo'naltirilgan o'quv dasturlari mavjud bo'lib, jahon miqyosidagi ta'limni O'zbekistonning strategik qarashlariga moslashtirishga intiladigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Uchrashuv ochiq muloqot tarzida kechib, Samarqand shahrining bir qator oliy ta'lim muassasalaridan talabalar ishtirok etdi. Yig'ilganlar universitet, undagi ta'lim tizimi va yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishish barobarida o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Tadbir yakunida talabalarga Amity universiteti tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.





DERMATOVENEROLOGLAR, KOSMETOLOGLAR VA GINEKOLOGLAR UCHUN SEMINAR


23-noyabr kuni universitetda Teri tanosil kasalliklari kafedrasi tomonidan zamonaviy dermatovenerologiya, kosmetologiya va ginekologiyaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminar tashkil etildi.

Seminarda "Konturli yuz plastikasi, intim konturli plastika va zamonaviy muammolar yechimlari" mavzusida vrach ginekolog, plastik jarroh, Malika Adilova hamda tibbiyot fanlari doktori, dermatolog, dermatokosmetolog, Nigora Xodjayevalar ma'ruza bilan ishtirok etdi.

Seminarda ishtirokchilar kosmetologiya, dermatologiya va boshqa bir qator zamonaviy sohalardagi bilim va ko'nikmalarini oshirish bilan birga estetik ginekologiya, yangi yondashuvlar, muammo va yechimlar, sayfa plombamoddalari bilan yuzni uyg'unlashtirish va boshqa bir qator mavzular yuzasidan fikr va mulohazalar tinglandi.

VITEBSK DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI PROFESSORI ISHTIROKIDA OCHIQ MA'RUZA BO'LIB O'TDI

15-16-dekabr kunlari IV Xalqaro olimpiada doirasida universitetda Vitebsk davlat tibbiyot universiteti "Dermatovenerologiya va kosmetologiya" kafedrasining professori, tibbiyot fanlari doktori Adaskevich Vladimir Petrovich tomonidan "Неотложные состояния в дерматологии" mavzusida ochiq ma'ruza bo'lib o'tdi.



Universitetning Teri-tanosil kasalliklari kafedrasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan ochiq ma'ruzada qatnashgan kafedra assistentlari, klinik ordinatorlar, magistratura rezidentlari, RID va KIATM DM Samarqand viloyat hududiy filiali shifokorlariga dermatovenerologiya sohasida uchraydigan shoshilinch holatlar, ushbu holatlarda bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar haqida aytib o'tildi va boshqa bir qator mavzular yuzasidan fikr va mulohazalar tinglandi.

“SAMARQAND-2020” TIBBIYOT OLIYGOHLARI

Joriy yilning 15-16-dekabr kunlari Samarqand davlat tibbiyot universitetida an’anaga aylanib ulgurgan “Samarqand-2020” tibbiyot oliygohlari talabalarining IV-Xalqaro olimpiadasi bo‘lib o‘tdi. Olimpiadada jahonning o‘nga yaqin davlatlaridan jumladan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Belorussiya va Ukraina davlatlarining 84 ta Tibbiyot oliygohlaridan 670 ta offline va 4141 nafar online tarzda talabalar, xorijiy tibbiyot muassasalari rektorlari hamda 80 nafarga yaqin professor-o‘qituvchilar ishtirok etdi.

Olimpiadaning tantanali ochilish marosimida so‘zga chiqqan Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, professor Jasur Rizayev to‘rtinchi bora tashkil etilayotgan mazkur nufuzli musobaqa nafaqat talabalar va yosh tadqiqotchilarning bilim va malakalarini sinovdan o‘tkazish va ularni munosib taqdirlashga balki, xalqaro do‘stona munosabatlarning yanada mustahkamlanishi hamda tibbiyot sohasida jahonning bir qator mamlakatlari bilan yangidan yangi hamkorlik aloqalarining o‘rnatilishiga zamin yaratishini ta’kidlab, barcha olimpiada ishtirokchilariga omad tiladi.

Ochilish marosimning madaniy qismi bayramona ruhda davom etib, taniqli san’atkorlar, ashula va raqs ansambllari hamda Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalarining bir-biridan qiziqarli ijodiy chiqishlari barcha ishtirokchilarga yuqori kayfiyat ulashdi.

Olimpiada doirasida bir guruh xorijiy davlat OTM professor o‘qituvchilariga universitet rektori Jasur Rizayev tomonidan universitetning “Faxriy professori” unvoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining tashakkurnomalari topshirildi.

Jumladan, Belarus davlat Xalqlar do‘stligi ordenli Vitebsk davlat tibbiyot universiteti rektori Chukanov Aleksey Nikolayevichga “Samarqand davlat



TALABALARINING IV-XALQARO OLIMPIADASI BO‘LIB O‘TDI

tibbiyot universiteti faxriy professori” unvoni, Belenova Irina Aleksandrovna, Sankt-Peterburg Sog‘liqni saqlash qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Tereshin Aleksey Yevgenevich, Turkiya Sog‘liq bilimlari universiteti rektori Kamalettin Aydinlarga O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining tashakkurnomalari tantanali ravishda topshirildi.

Shuningdek, universitet talabalari uchun chet ellik va respublikamizning yetakchi mutaxassislari tomonidan zamonaviy tibbiyotda fundamental fanlar, ilmiy tadqiqot usullari va boshqa dolzarb masalalarga bag‘ishlangan o‘ttizga yaqin master-klasslar, bakalavr, magistr hamda klinik ordinatorlar uchun xorijiy tibbiyot oliy ta’lim muassasalari rektorlarining ma’ruzalari ham tashkil etilib, tinglandi.

“Samarqand – 2020” tibbiyot oliygohlari talabalarining IV-Xalqaro olimpiadasida ishtirok etuvchilar ikki bosqichda, test sinovlari va amaliy ko‘nikmalarini namoyish etish orqali bellashdilar. Shu bilan bir qatorda an’anaviy tarzda qatnashayotgan 670 nafar talabalar o‘zlarining amaliy bilimlarini jahon standartlari talablariga javob beruvchi 7-avlod simuliatsion robotlari orqali o‘z ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazdilar. Olimpiada o‘z ishini o‘zbek, rus va ingliz tillarida olib bordi.

Shuningdek, tarixda ilk bor “Samarqand – 2020” Xalqaro olimpiadasi doirasida O‘zbekistonning Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi va xorijiy tibbiyot kollejlarining o‘quvchilari o‘rtasida xalqaro olimpiada tashkil qilindi.

Olimpiadaning yopilish marosimi ham tantanali tarzda tashkil etilib, g‘olib va sovrindorlar, faol ishtirok etgan va nominatsiya bo‘yicha g‘olib deb topilgan ishtirokchilarni tibbiyot oliy ta’lim muassasalari rektorlari hamda professor-o‘qituvchilar tomonidan diplom, statuetka, sertifikat hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirladilar. Taqdirlash marosimi bayramona ruhda davom ettirilib, Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalari tomonidan tayyorlangan ijodiy chiqishlar va ko‘ngilochar kuy-qo‘shiqlar barchaga yuqori kayfiyat ulashdi.

Olimpiadaning taqdirlash marosimidagi madaniy qismi bayramona ruhda davom etib, qiziqarli chiqishlar va kuy-qo‘shiqlar barcha ishtirokchilarga yuqori kayfiyat ulashdi.













TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASIDA III XALQARO TIBBIY MALAKALAR OLIMPIADASI

Joriy yilning 19-dekabr kuni Toshkent tibbiyot akademiyasida III Xalqaro tibbiy malakalar olimpiadasi bo‘lib o‘tdi.

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) va Koreya xalqaro sog‘liqni saqlash jamg‘armasi (KOFIH) bilan hamkorlikda tashkil etilgan olimpiadada talabalar asosiy tibbiyot, ichki kasalliklar, jarrohlik, pediatriya, reproduktiv salomatlik, bosh va bo‘yin kasalliklari, shoshilinch tibbiy yordam, davolash-profilaktika tibbiyoti yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlarini sinovdan o‘tkazdilar.

Mazkur nufuzli musobaqada Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalari ham faol ishtirok etib sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritdilar. Jumladan, Xurramov Yaxyoxon, Olimjonova Faraxnoza, Rustemova Gulnara, Maxmudjonova Sitorabonu, Suyunov Farrux, Boboqulov Samoyiddin, Ochilov Yoqubjon hamda Djumayev Muxammadjonlar bir necha yo‘nalishlar va nominatsiyalar bo‘yicha faxrli 1-2- va 3-o‘rinlarni qo‘lga kiritdilar.

Shuningdek, jamoaviy hisobda SamDTU II-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Talabalarimizni erishgan yutuqlari bilan qutlab qolamiz!

XINJIANG TIBBIYOT UNIVERSITETI DELEGATSIYASI TASHRIFI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti tibbiyot sohasidagi jahonning bir qator oliygohlari hamda tibbiyot birlashmalari bilan hamkorlik aloqalarini yuritib kelmoqda.

Osiyo mintaqasida yirik va har tomonlama rivojlangan Xitoy davlatidagi oily ta'lim muassasalari bilan ham mustahkam aloqalar o'rnatilgan bo'lib, ular bilan doimiy akademik almashinuv va birgalikdagi loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, joriy yilning 11-dekabr kuni Xitoyning Xinjiang tibbiyot universiteti delegatsiyasi universitetimizga tashrif buyurdi. Universitet rektori professor A.Aisa boshchiligidagi mehmonlarni universitet rektori Jasur Rizayev kutib oldi hamda universitet haqida bir qancha ma'lumotlarni o'rtoqlashdi. Do'stona bo'lib o'tgan uchrashuvda "Bir makon - bir yo'l" dasturiga tayangan holda ikki muassasa o'rtasida hamkorlik qilishga, xususan, ilmiy almashinuv, qo'shma laboratoriyalar tashkil etish, qo'shma zamonaviy texnopark tashkil etish kabi loyihalar ustida kelishib olindi.

Uchrashuv so'ngida universitet rektori Rizayev mehmonlarga universitet ramzi tushirilgan esdalik sovg'alarini topshirdi.





WEBSTER UNIVERSITETI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI RIVOJLANMOQDA

Samarqand davlat tibbiyot universiteti jahonning yetakchi oliygohlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatib kelmoqda.

Jumladan AQSHning Webster universiteti bilan birgalikda bir qator hamkorlikdagi ishlar amalga oshirilgan bo'lib, joriy yilning 20-dekabr kuni Webster universiteti delegatsiyasi Samarqand davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida mehmonlar universitetning yangi o'quv binosi va unda yaratilgan shart-sharoitlar hamda universitet qoshida tashkil etilgan simulyatsion markaz faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, mehmonlar universitet tarixi muzeyiga ham tashrif buyurib, oliygoh haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Tashrif doirasida universitet rektori Jasur Rizayev bilan uchrashuv tashkil etilib, hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Jumladan, Toshkent shahridagi Webster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi hamda SamDTU hamkorligida universitetda Biologiya va Kimyo ta'lim yo'nalishlarini yo'lga qo'yish, laboratoriyalar faoliyatini yanada rivojlantirish va boshqa masalalarda kelishuvga erishildi. Uchrashuv so'ngida universitet rektori J.Rizayev mehmonlarga universitet ramzi tushirilgan esdalik sovg'alarini topshirdi.

NEYROXIRURGLAR TYUMENDA MALAKA OSHIRDILAR

SamDTU huzuridagi Neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazining yetakchi mutaxassislari X.Rajabov va Z.Husanov 2023-yil 28-29 noyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Tyumen shahrida o'tkazilgan "Bosh asosi o'smalarida endoskopik transnazal xirurgiya" xalqaro ilmiy-amaliy o'quv kurslari va anjumanida ishtirok etishdi.

Anjumanda Rossiya Federatsiyasi va jahonning eng yetakchi neyroxirurg-professorlar, neyroxirurgiya sohasining taniqli vakillari qatorida SamDTU delegatsiyasi vakillari ham ma'ruzalar bilan faol ishtirok etdilar.

Anjuman doirasida Tyumen Federal neyroxirurgiya markazi direktori professor A.Sufianov, Felix Vinod (Hindiston), t.f.d., professor Sergei Lyashenko (Rossiya), t.f.d. Daniel Prevedello (AQSh), t.f.d. Diana Lyashenko (Rossiya), t.f.n. Georgiy Polev (Rossiya), t.f.n. Aleksandr Skripnikov (Rossiya), Andrey Dubovoy (Rossiya) va professor Roman Bosnyak (Sloveniya) kabi yetuk mutaxassislar ma'ruzalar qilishdi.

Ishirokchilar 3D-kadaver laboratoriyasida bo'lib o'tgan master-klass loyihasida o'z malakalarini oshirib, bosh asosi xirurgiyasida qo'llaniluvchi yuqori texnologiyali operatsiya usullarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Mutaxassislarimiz anjumanning ikkinchi kunida o'tkazilgan "Live surgery" amaliyotida murakkab lokalizatsiyali o'smalarda bajarilgan operatsiyalarda ishtirok etib, anjuman so'ngida sertifikatlarga ega bo'lishdi. Shuningdek, Rossiya federatsiyasining Tyumen shahridagi Neyroxirurgiya markazi jamiyati bilan kadrlar tayyorlash, ilmiy va amaliy hamkorlikni davom ettirishga kelishildi.





SAMDTU VA POMORSK UNIVERSITETI O'RTASIDA HAMKORLIK ALOQALARI MUSTAHKAMLANDI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti jahonning bir qator oliygohlari bilan samarali hamkorlik aloqalarini o'rnatib kelmoqda.

Jumladan, Polshaning Pomorsk universiteti bilan mustahkam hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, birgalikda bir qator loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.

Joriy yilning dekabr oyi boshida Pomorsk universiteti delegatsiyasi Samarqand davlat tibbiyot universitetiga tashrifi amalga oshirildi. Pomorsk universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektori Danuta Gerchinska, sog'liqqa oid fanlar instituti rahbari Monika Vaskov, fizioterapiya kafedrasi mudiri Agneshka Groxulska hamda xorijiy aloqlar bo'limi mutaxassisi Anna Kolesniklardan iborat mehmonlar universitetda yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv jarayonlari va universitet qoshida tashkil etilgan simuliatsion markaz faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, SamDTU tarixini aks ettiruvchi muzeyga sayohat uyushtirilib, universitet tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tashrif doirasida ikki oliygoh o'rtasida bir qator kelishuvlarga erishilib, ikki tomonlama memorandum imzolandi. Xususan, kelgusida birgalikdagi qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish, kosmetologiyaning yangi yo'nalishlari bo'yicha klinik ordinatura va magistratura mutaxassislarini tayyorlashda hamkorlik qilish borasida kelishuvlarga erishildi.

XALQARO OITSGA QARSHI KURASHISH KUNI MUNOSABATI BILAN DAVRA SUHBATLARI TASHKIL ETILDI



1-dekabr – Xalqaro OITSga (orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) qarshi kurashish kuni sifatida belgilangan.

Sana munosabati bilan joylarda bir qator profilaktik va davra suhbatlari tashkil etib kelinadi. Jumladan, Samarqand davlat tibbiyot universitetida ham talabalar bilan doimiy ravishda davra suhbatlari, turli tadbirlar o‘tkazildi.



Xususan, joriy oy yakuni davomida universitetning bir qancha fakultetlarida OITSga qarshi kurashish chora tadbirlari doirasidagi uchrashuvlar tashkil etildi. Davra suhbatlarida mutaxassislar tomonidan OIV va OITS tushunchalari, bu kasalliklarning kelib chiqishi, yuqish hamda rivojlanish omillari haqida talabalarga ma’lumotlar berib o‘tildi. Shuningdek, bugungi kunda jahonning eng global muammosiga aylangan va haligacha to‘liq davosi topilmagan OITS kasalligining oldini olish, unga qarshi kurashish chora-tadbirlari haqida ham so‘z yuritilib, mavzu yuzasidan savol-javoblar o‘tkazildi. Talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH DOIRASIDA DAVRA SUHBATI

Ma’lumki, bugun ba’zi davlat va jamiyatlarda murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kechmoqda. Yaqin Sharq va boshqa hududlardagi qator mamlakatlar chuqur siyosiy tanglik, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik va qurolli to‘qnashuvlarni boshidan kechirmoqda.



Bularning sababini esa o‘sha hududlardagi diniy ekstremistik va terroristik harakatlarning avj olganligi bilan izohlash mumkin.

1-dekabr kuni universitetda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash doirasida talablar bilan davra suhbati tashkil etildi. Tadbirda rektor maslahatchisi Aripov Elyorbek Alimovich, 2-son Davolash ishi fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari R.Boboqulov fakultet talabalariga diniy ekstrimizm va terrorizm haqida tushunchalar berib, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotning qadriga yetish hamda asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo‘shish har birimizning burchimiz ekanini ta’kidladi.

QO‘SHMA TA,LIM FAKULTETI TALABALARI BILAN UCHRASHUV O‘TKAZILDI

1-dekabr kuni universitet qo‘shma ta’lim fakulteti dekani va universitet ma’muriyati vakillari ishtirokida talabalar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda Qo‘shma ta’lim fakulteti dekani D.Abduraxmanov, Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor Z.Aminov, SamDTU rektori maslahatchisi E.A.Aripov, SamDTU Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi B.Rashidov, SamDTU profilaktika inspektori O.Eshmurotov hamda Qo‘shma ta’lim fakulteti talabalari ishtirok etdi.

Fakultet dekani talabalar bilan ochiq muloqot o‘tkazib, o‘quv yilining samaradorligi, ta’lim tizimining tashkil etilishi xususida so‘z yuritdi. Shuningdek, fakultet talabalarini tashkil etilayotgan tadbirlar va musobaqalarda faol ishtirok etishga chaqirdi. Shuningdek, rektor maslahatchisi E.A.Aripov universitetda sog‘lom ma’naviy muhitni rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar xususida gapirib o‘tdi. So‘ngra Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor Z.Aminov so‘zga chiqib, fakultetning tashkil etilishi va xorijiy mamalakatlar OTMlari bilan qilingan Qo‘shma ta’lim dasturlari haqida gapirib o‘tdi. Shuningdek, qishki mavsumda turli pirotexnika vositalaridan foydalanmaslik borasida kerakli tushuntirishlar berildi.





TALABALAR BILAN PROFILAKTIK DAVRA SUHBATI

Universitet talabalari o‘rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarlik va yot diniy oqimlarga qo‘shilib ketish holatlarini oldini olish maqsadida talabalar bilan doimiy ravishda davra suhbatlari tashkil etib kelinadi.

Jumladan, 18-dekabr kuni universitet Pediatriya ishi fakulteti talabalari bilan birgalikda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash hamda pirotexnika vositalaridan foydalanishni oldini olish tadbirlari doirasida profilaktik davra suhbati tashkil etildi.

Tadbirda rektor maslahatchisi Aripov Elyorbek Alimovich, universitet profilaktika inspektori O.Eshmurotov, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi xodimi Salohiddin Muhiddinov hamda Pediatriya ishi fakulteti tyutor va talabalari ishtirok etdilar. Davra suhbatida talabalarga diniy ekstrimizm va terrorizm haqida tushunchalar berilib, bunday zararli oqimlarga qarshi immunitet shakllantirish borasida kerakli tavsiyalar berildi. Ogohlik va ziyraklik davr talabi ekani uqtirildi.

Davra suhbatida universitet profilaktika inspektori O.Eshmurotov tomonidan “Pirotexnika vositalarini tarqalishi va foydalanishga qarshi kurashish” borasida ma’ruza tashkil etilib, yaqinlashib kelayotgan bayram munosabati bilan turli noqonuniy va zararli portlovchi moslamalar, mushaklar va pirotexnika vositalaridan foydalanmaslik, jamoat joylarida yurish-turish qoidalariga rioya qilish va qonunbuzarliklarni oldini olish borasida tushunchalar berib o‘tdi. Tadbirda talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.



SamDTU 1-son Davolash ishi fakultetining Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida 2024-yil 10-yanvar kuni soat 13:10 da Ichki kasalliklar propedevtikasi fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 301-305 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Yurak qon-tomir tizimi tekshirish usullari. So'rab-surishtirish. Ko'zdan kechirish. Yurakning palpatsiya va perkussiya maqsadi, texnikasi".

Ma'ruzachi: PhD., assistent D.R.Toirov.

Manzil: Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: 1-son Davolash ishi fakultetining 301-305 guruh talabalari, kafedra assistentlari, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova.

SamDTU 1-son Davolash ishi fakultetining Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida 2024-yil 11-yanvar kuni soat 13:10 da Ichki kasalliklar propedevtikasi fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 306-310 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Elektrokardiografiya. Yurak gipertrofiyasida EKG o'zgarishlari. O'tkir miokard infarktidagi EKG o'zgarishlari. Aritmiyalardagi EKG o'zgarishlari. Exokardiografiya haqida tushuncha".

Ma'ruzachi: Katta o'qituvchi F.Yu.Nazarov.

Manzil: Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: 1-son Davolash ishi fakultetining 306-310 guruh talabalari, kafedra assistentlari, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova.

SamDTU Tibbiy pedagogika, oliy hamshiralik ishi va xalq tabobati fakultetining Endokrinologiya kafedrasida 2024-yil 11- yanvar kuni soat 10:05 da Endokrinologiya fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 4-bosqich talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Gipotalamo-gipofizar tizim kasalliklari".

Ma'ruzachi: PhD. G.Sh.Negmatova.

Manzil: Endokrinologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: 1-son Davolash ishi fakultetining 4-bosqich talabalari, dekanat xodimlari, klinik ordinatorlar va magistratura rezidentlari.

Kafedra mudiri: PhD. G.Sh.Negmatova.

SamDTU Pediatriya fakultetining Ichki kasalliklar kafedrasida 2024-yil 12-yanvar kuni soat 10:05 da Ichki kasalliklar fanidan Pediatriya fakultetining 4-bosqich talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Arterial gipertoniya. Etiologiyasi, tasnifi, patogenezi, klinik belgilari va zamonaviy tashxislash mezonlari".

Ma'ruzachi: PhD., dotsent v.b. A.A.Nasirova.

Manzil: Pediatriya fakulteti Ichki kasalliklar kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Pediatriya fakultetining 4-bosqich talabalari, kafedra assistentlari, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: PhD., dotsent Z.B.Babamuradova.

SamDTU 1-son Davolash ishi fakultetining 2-son Xirurgik kasalliklar kafedrasida 2024-yil 15-yanvar kuni soat 11:10 da UASh uchun xirurgik kasalliklar fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 616-619, 601-605 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: Oshqozon ichak tizimidan qon ketish (OITQK). Zamonaviy tekshirish va davolash usullari.

Ma'ruzachi: T.f.d., dosent S.A.Ruziboyev.

Manzil: "Qorasuv maskani" RSHTYOIM Samarqand filiali.

Taklif qilinganlar: 1-son Davolash ishi fakultetining 616-619, 601-605 guruh talabalari, kafedra professor o'qituvchilari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., dosent I.B.Mustafakulov.

SamDTU 2-son Davolash ishi fakultetining 1-son Xirurgik kasalliklar, transplantologiya va urologiya kafedrasida 2024-yil 15-yanvar kuni soat 12:30 da 2-son Davolash ishi fakultetinig 406-410 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "O't tosh kasalligi va uning asoratlari".

Ma'ruzachi: PhD., dotsent I.A.Arziyev.

Manzil: 1-son Xirurgik kasalliklar kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: 2-son Davolash ishi fakultetining 406-410 guruh talabalari, magistratura rezidentlari va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor Z.B.Kurbaniyazov.

SamDTU 1-son Davolash ishi fakultetining 2-son Xirurgik kasalliklar kafedrasida 2024-yil 22-yanvar kuni soat 11:10 da UASh uchun xirurgik kasalliklar fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 616-619, 620-623 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "O'tkir qorin va abdominal og'riqlar bilan kechuvchi kasalliklar. Erta tashxislash va zamonaviy davolash usullari".

Ma'ruzachi: T.f.d., dotsent I.B.Mustafakulov.

Manzil: "Qorasuv maskani" RSHTYOIM Samarqand filiali.

Taklif qilinganlar: 1-son Davolash ishi fakultetining 616-619, 620-623 guruh talabalari, kafedra professor o'qituvchilari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., dotsent I.B.Mustafakulov.

SamDTU Pediatriya ishi fakultetining 1-Pediatriya va neonatologiya kafedrasida 2024-yil 22-yanvar kuni soat 11.10 da Ambulator poliklinik pediatriya fanidan Tibbiy pedagogika, oliy hamshiralik ishi va xalq tabobati fakultetining 609-611 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Immunoprofilaktika".

Ma'ruzachi: PhD., dotsent v.b. M.F.Ibragimova.

Manzil: 1-Pediatriya va neonatologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Tibbiy pedagogika, oliy hamshiralik ishi va xalq tabobati fakultetining 609-611 guruh talabalari, magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor N.M.Shavazi.

SamDTU 2-son Davolash ishi fakultetining 1-Ichki kasalliklar kafedrasida 2024-yil 30-yanvar kuni soat 11:10 da Ambulator-poliklinik terapiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 611-615 guruh talabalari ucun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Aritmiyalarning taqqoslama tashxisoti. Sinusli taxikardiya. Nafas aritmiyasi. Ekstrasistoliyalar. Ritm boshqaruvchisining kuchi. Sinus tugun sustligi. Ekstrasistoliyalarning taqqoslama tashxisoti. UASH taktikasi. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasi. Dispanserizatsiyasi".

Ma'ruzachi: T.f.d., dotsent X.X.Xamrayev.

Manzil: 1-Ichki kasalliklar kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: 2-son Davolash ishi fakultetininig 611-615 guruh talabalari, magistrlar, klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor Sh.X.Ziyadullayev.

SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

1-SON DAVOLASH ISHI FAKULTETI

Anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin.

PEDIATRIYA ISHI FAKULTETI

Klinik laborator diagnostikasi va DKTF klinik laborator diagnostika kursi bilan kafedrasi, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin

3-son pediatriya va tibbiy genetika kafedrasi, stajyor assistent lavozimiga - 1 o'rin.

TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGI VA TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI

Patologik fiziologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

DIPLOMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETI

Akusherlik va ginekologiya kafedrasi neonatologiya kursi bilan, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Akusherlik va ginekologiya kafedrasi neonatologiya kursi bilan, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Terapiya, kardiologiya va funksional diagnostika kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Oilaviy va preventiv tibbiyot kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Nevrologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Kaminvaziv laporoskopik xirurgiya kursiga, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Katta o'qituvchi, assistent yoki stajyor assistent lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:
G'.U.Lutfullayev, S.A.Karabayev, A.A.Axmedov, J.F.Kadirov, B.E.To'xtarov, F.A.Daminov, S.E.Mamaradjabov, N.M. Shavazi, O.A.Xamidov

SHIFOKOR SO`ZI
Nashr uchun mas'ul:
O. Muratov

Operator va sahifalovchi:
A. Xolboyev
Fotomuxbir:
O.Axmedov

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro`yxatga olingan.
INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to`liq rangli shaklda chop etiladi va ***bepul tarqatiladi***

MANZIL: ***Samarqand shahri, Amir Temur ko`chasi 18-uy.***
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.
Nashrga ruxsat berildi: 2023 yil, 27 dekabr. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 145